



Xorazm etnografizmlarining til madaniyatidagi ahamiyati

Xaytboyeva Muxlisa Muxtor qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch

davlat universiteti Filologiya

va san'at fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida etnografizmlarga oid ayrim tadqiqotlar, ularning til madaniyatidagi ahamiyati va etnografizm tushunchasi bilan bog'liq masalalar xususida so'z yuritilgan. Ushbu maqolada Xorazm hududida qo'llanuvchi etnografizmlarga, asosan, to'y marosimlariga oid etnografizmlarga to'xtalangan.

Kalit so'zlar: etnografiya, urf-odat, qadriyat, atama, an'ana, etnografik leksika, marosim, etnos.

O'zbek tili dunyo tillari orasida o'zining boy leksik qatlami va grammatik qurilishi bilan o'ziga xos o'ringa egadir. Dunyo miqyosida, lingvistik olimlar orasida o'zbek tilini o'rganishga va bu tilni chuqurroq bilishga qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Buni tan olish va e'tirof etish biz uchun ham faxr, ham mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. O'zbek tilining leksik sathi rang-barang va bu boy qatlam ko'p ma'nolilik, tag ma'nolilik, qochirimlar singari mazmundor unsurlar bilan to'yingandir. O'zbek tilini rivojlantirishda va tilimizning dunyo arenasidagi o'rnini belgilashda tilshunosligimizda olib borilayotgan keng miqyosidagi kuzatishlar, ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar muhim hisoblanadi. O'zbek



tilshunosligida shu vaqtga qadar tilimizning barcha qatlamlari yuzasidan yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borildi desak, adashmaymiz.

Tilshunos olimlarimizning olib borgan kuzatishlari natijasida yuzaga kelgan ilmiy ishlar biz uchun boy va tuganmas xazinadir. O‘zbek tilining barcha qatlamlari qatori leksik qatlamda ham yetarlicha tadqiqotlar olib borilgan. Kuzatilgan ushbu tadqiqotlarda o‘zbek tilining leksik sathiga turlicha nuqtayi nazardan yondashilgan. Leksik sathimizda shunday so‘zlar borki, ular xalqimizga xos bo‘lgan milliy madaniyatni, o‘ziga xos mentalitetni aks ettiradi. Ushbu so‘zlarida ifodalanayotgan lug‘aviy ma‘nodan tashqari faqat o‘zbek xalqqagina tegishli bo‘lgan urf-odatlar, marosimlar, an‘ana va qadriyatlar ham ifodalanadi. Bunday xususiyatlarga ega so‘zlarni biz ilmiy atamalar doirasida “Etnografizm” lar deb ataymiz.

“Etnografizm” atamasining tarkibiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, bu so‘zning o‘zagi xalqlarning kelib chiqishi, paydo bo‘lishi va shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lganlik jarayonlarini o‘rganuvchi soha atamasi, ya‘ni “Etnografiya” so‘zidir. Demakki, etnografizmlar ushbu soha bilan uzviy aloqadorlikka va biri ikkinchisini to‘ldirgan holatda o‘rganiladi. Etnografizmlarni etnografiya yo‘nalishining o‘rganish obyekti sifatida ham baholashimiz mumkin. O‘zbek tilshunosligida etnografizmlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish, o‘zbek tili leksik sathini sistema sifatida o‘rganish asosan 2000-yillarda kuzatiladi. Dastlab olib borilgan ushbu tadqiqotlarda yuqorida bayon etilgan xususiyatlarga ega so‘zlar “Etnografizm” atamasi bilan nomlangan. Bu tushuncha yaqin yillar ichida yaratilgan ilmiy tadqiqotlarda keng joriy etildi va umumiste‘moldagi so‘z sifatida hozirda ham tilshunoslarimiz tomonidan qo‘llanilib kelinmoqda. Aynan etnografizm tushunchasi bilan bog‘liq tilshunosligimizdagi dastlabki ilmiy tadqiqot “O‘zbek etnografizmlarining sistemaviy tadqiqi” deb nomlanadi¹. Milliy madaniyatimiz ko‘zgusi sifatida qaraladigan

¹ Qahhorova M. O‘zbek etnografizmlarining sistemaviy tadqiqi. -Toshkent. 2009.



bunday soʻzlarni oʻrganishda Mahmud Sattorning “Oʻzbek udumlari”² deb nomlanuvchi asari ham qimmatli ahamiyatga egadir. Etnografizmlarga oid ilmiy izlanishlarda ushbu asarga yetarlicha tayangan va yaratilgan tadqiqotlarning asosi shu asar bilan bogʻliq, deb bimalol ayta olamiz. Etnografizmlarni oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi tarkibida oʻrganish tilshunosligimizda salmoqli oʻringa ega bunday tipdagi izlanishlar keng oʻrinni egallaydi. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi asarlarining til xususiyatlarini oʻrganish “Oʻzbek xalq topishmoqlarining semantikasi va sintaksisi” (Saparniyozova Muyassar. –T.: 2007.) deb nomlanuvchi tadqiqotda ham yetarlicha yoritib berilgan³. Unga koʻra xalq ogʻzaki ijodimizning boy namunasi deya taʼkidlanadigan topishmoqlar oʻzida zukkolik, topqirlik, hozirjavoblik sifatlarini singdirishdan tashqari oʻzbek xalqiga xos maʼnaviy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazishdek muhim vazifani ham oʻziga yuklaydi⁴.

Har bir millat madaniyatini uning urf-odat, anʼana va qadriyatlaridan ajratgan holda tassavvur etib boʻlmaydi. Etnografik leksika nomi ostida birlashgan etnografizmlarni oʻrganish milliy urf-odat va qadriyatlarni tadqiq etishda ahamiyatli⁵.

Urf-odatlar muayyan etnosning oʻziga xosliklarini namoyon etadi, butun etnografiya tizimida lisoniy belgi sifatida faol oʻringa ega, shu jihati bilan tilshunoslik uchun muhim.

Taʼkidlash oʻrinliki, etnografik leksika mavzu va hajm jihatidan juda keng. Toʻy marosimlariga oid etnografizmlar alohida oʻrganishni taqozo etadi. Shu oʻrinda marosimlar urf-odatlar bilan bogʻliq Xorazm hududida qoʻllanuvchi etnografizmlarning baʼzilarini koʻrib chiqamiz:

²Mahmud Sattor. Oʻzbek udumlari. -Toshkent: Choʻlpon, 2007.

³ Saparniyozova Muyassar. Oʻzbek xalq topishmoqlarining semantikasi va sintaksisi. –Toshkent.2007.

⁴ Mamatqul Joʻrayev, Jabbor Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish.

⁵ Jabborov E. Oʻzbek xalq oʻyinlari leksikasi. -Toshkent. 1998.



1. Patiṭjā töji - Yigit va qizning birgalikda turmush qurishini nishonlash munosabati bilan oʻtkaziladigan marosim.
2. Qulaq töji - Oʻgʻil va qiz bolaning chaqaloqlik paytlaridayoq bir-birlariga unashtirib qoʻyish odatlari.
3. Sövcʻilik - Qizni kelinlikka soʻrab borish odati.
4. Yüzik - Qizni unashtirish uchun birinchi marta olib boriladigan sovgʻa.
5. Öjgoriṣ -- Oʻgʻlini uylantirmoqchi boʻlgan tomonning qizni borib koʻrishi va aksincha qiz tomonning boʻlajak kuyovni koʻrish uchun uyiga borish odati.
6. Qazāqī - Toʻy tayyorgarligida yordamlashgan kishilarga, quda bilan borganlarga, mashina haydovchi shofyorga beriladigan roʻmolcha yoki oq tovar.
7. Bazarliq - Unashtirilgan qiz tomonga kuyov tomonidan har payshanba kuni olib boriladigan sovgʻa.
8. Bājrämlik - Kuyov tomondagilarning boʻlajak kelinga bayram kunlari olib boradigan sovgʻasi.
9. Qālin - Qizni kelin qilib oluvchilarning qiz ota-onasiga (avval shartlashib olganlariga koʻra) beradigan, pul va boshqa narsalarning nomi.
10. Sep - Qiz uzatishga unga ota-onasi tomonidan berib yuboriladigan mol, bisot, narsalar nomi.
11. Miṇoj töji - Nuroniy keksalarmiz 84 yoshga toʻlganda ming oy koʻrgan hisoblanadi va yaqin qarindoshlari bilan birga nishonlaydilar.
12. Pätir – Baʻzan qiz ota-onasining Fotiha toʻyi oʻtkazmay, uning oʻrniga qudasi tomonidan joʻnatilgan sovgʻa-salomlar bilan qoʻni-qoʻshni va qarindosh-urugʻlarini chaqirib ziyofat qilish odati.



13. Gijövpäji - Fotiha to'yida qiz tomonga sovg'alar olib kelgan idishlarga kuyov sarmo va boshqa oziq-ovqat solib kuyovnikiga berish odat nomi.
14. Töjliq - To'y bo'lishidan 5-6 kun avval kelin tomonga yuboriladigan qo'y, guruch, un, sabzi-piyoz, qand-qurs kabi sovg'alar yig'indisining umumiy nomi.
15. Hinaqär - Unashtirilgan qizning to'ydan 1-2 kun avval o'z dugonalariga beradigan ziyofat-bazmining nomi.
16. Töjänä - To'y qiluvchi xonadonga olib boriladigan sovg'a.
17. Košanä biçär - Nikoh qilingan qizning sochining tarab va o'rib, uni olib ketishga tayyorlab qo'yish odati.
18. Läckäk töji - Keksa yoshli ayollar 63 yoshga to'lganda shu marosimni o'tkazishadi. Bir ayolni o'rtaga qo'yib uning yaqinlari, dugonolari boshiga ro'mollar o'rashadi.

Xorazmda qo'llanuvchi shaxsning kasb-kori, mehnat malakasi bilan bog'liq etnografizmlarga to'y marosimlarida bajaradigan ishi bilan bog'liq nomlar (laqablar) ham mavjud, ularga misollarni quyida ko'rishimiz mumkin:

1. Xadim (xodim) - o'g'uz shevalarida qo'llaniladigan ushbu so'zning arabcha "xadim" shakli mavjud... Bu so'zning xodimga muannas shakli "ayol xodim" ma'nosini anglatadi. Qishloqda ayollarga bosh bo'luvchi, urf-odatlarni yaxshi biluvchi, muomalali ayol. U doimo yig'inlarda, to'y-marakalarda qatnashadi: Sultonposhsha xadim, Bekposhsha xadim.
2. So'pi - odamlar ko'p to'planadigan joylarda rasmiy e'lonlar eshittirib yuruvchi kishi, qishloq joylarida to'y va ma'rakalarga mahallalarda yurib qichqirib aytib chiqadigan kishi: G'ani so'pi, Otavoy so'pi.



3. Talākçi (talakchi) - to'y-marosimlarida ayrim xona bo'lib, unda hamma mahsulotlar saqlangan va ushbu mahsulotlarga javobgar shaxs belgilangan: Gulbahor talākçi (Gulbahor talakchi).

4. Dasturxanchi (dasturxonchi) - to'y, katta ziyofat va boshqa marosimlarda dasturxon tayyorlash va kelgan-ketganlarni kutish uchun belgilangan ayol: Chamangul dasturxanchi.

5. Ćamanç(i) (chamanchi) - to'ylarda qiz chiqayotgan va tushadigan uylarga borib xalq qo'shiqlarini aytib yuruvchi 3-4 kishilik guruh bo'lib, ularga nisbatan shu laqab qo'llaniladi: Nurxon Ćamanç(i).

6. Mölla (mulla) - o'qimishli, taqvodor odam. O'rta Sharq, Markaziy Osiyo mamlakatlarida madrasa ta'limini olgan shaxs. Mulla to'y kuni bo'lg'usi kelin-kuyovni bir-biriga nikohlab qo'yadi: Sherip mölla.

7. Xalpä (xalfa)--Xorazm vohasida mahalliy og'zaki ijod namunalarini ijro etuvchi ayol, bu ma'no faqat Xorazm shevalaridagina uchraydi. Ular kelin to'y, qiz bazmi, beshik to'y, sunnat to'y kabi katta yig'inlarda qatnashib, jonli ijroda xalq og'zaki ijod namunalarini kuylab, raqs tushib davraga ko'tarinki ruh bag'ishlaydilar: Guliston xälpa.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Xorazm hududida qo'llanuvchi etnografizmlarni to'plash va o'rganish dolzarbligi, bu hududdagi etnografizmlarning o'ziga xos lisoniy va nolisoniy xususiyatlarga egaligi yuqorida ko'rsatilgan materiallar asosida dalillab berilgan. Xorazmda to'y marosimlari bilan bog'liq etnografizmlar o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jabborov E. O'zbek xalq o'yinlari leksikasi. -Toshkent. 1998.
2. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. -Toshkent: Cho'lpon, 2007.
3. Mamatqul Jo'rayev, Jabbor Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish.
4. Mirzayev N. O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati. -Toshkent.1991.
5. Qahhorova M. O'zbek etnografizmlarining sistemaviy tadqiqi. -Toshkent. 2009.
6. Saparniyozova Muyassar. O'zbek xalq topishmoqlarining semantikasi va sintaksisi. – Toshkent.2007.